

Date: 5th April-2025

**MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI VA UNINGNING UMR
YO'LDOSHI – ZARIFA SAIDNOSIROVA.**

Talaba.S.Z.Solijonov,
mustaqil izlanuvchi D.B. Tojiboyeva,
dotsent. D.T.Nazarova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek - XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O'zbekiston xalq yozuvchisi, akademik. U o'zbek romanchilik maktabining asoschilaridan biri hisoblanadi. 1885-yil 12-yanvarda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1968-yil 1-iyulda Toshkentda vafot etgan. Otasi Toshmuhammad ziyoli bo'lgan, onasi Roziyaxon savodli ayol bo'lgan. Dastlab eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida o'qigan. 1922-1924-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida tahsil olgan. Dastlab maktablarda o'qituvchi bo'lib ishlagan. Keyinchalik turli nashriyotlarda muharrir, O'zbekiston Fanlar akademiyasida ilmiy xodim bo'lib faoliyat yuritgan. Oybekning ijodi o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Uning asarlari o'zbek xalqining tarixi, turmush tarzi, orzu-umidlari, kurashlari va kelajakka ishonchini aks ettiradi. Oybekning nasriy asarlariga xos muhim xususiyatlardan yana biri shundaki, u asar qahramoni yoki tarixiy shaxsni Vatan va xalq manfaatlari yo'lida kurashuvchi, mehnatkash xalq orzu-armonlarining ro'yobga chiqishi yo'lida zahmat chekuvchi siymo sifatida tasvirlaydi. Ko'plab she'riy to'plamlar chiqargan ulardan juda ko'p misollar keltirishimiz mumkin. Masalan "Tuyg'ularim", "Vatanim", "Navoiy" va boshqalar. Shu jumladan dostonlar romanlar yozib chop ettirgan.

Oybekning dostonlari "Dilbar - davr qizi", "Po'lat quyuvchi" romanlari "Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiya shabadalar", "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" va boshqalar. Oybekning "Qutlug' qon" romani o'zbek adabiyoti realizmning eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda XX asr boshidagi o'zbek qishlog'ining hayoti, dehqonlarning og'ir turmushi, milliy zulm va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashi tasvirlangan.

"Navoiy" romani esa Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi. Oybekning asarlari o'zbek tilidan boshqa tillarga ham tarjima qilingan va jahon adabiyotida o'z o'rnini topgan. Yozuvchi asarlari o'zbek adabiyotining jahonaro shuhratini yana-da oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijobdoriylariga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mustahkam o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek – O'zbek adabiyotida unitilmas siymo ekanligini qayta qayta takidlab o'tsak bo'ladi.

U o'zbek adabiyotining faxri, millat g'ururi hisoblanadi. Oybekning ijodida muhim o'rin egallagan uning umr yo'ldoshi – Zarifa Saidnosirova.

Zarifa Saidnosirova – taniqli o'zbek adibi Oybekning sadoqatli rafiqasi, pedagog, filolog olim va adabiyotshunos edi. U nafaqat buyuk yozuvchining umr yo'ldoshi, balki



Date: 5th April-2025



uning ijodiy faoliyatida ham muhim ilm-fan yo'lida xizmat qildi. Uning nomi o'zbek adabiyoti va ma'rifati tarixida abadiy qoladi. Oybek merosini saqlash va targ'ib qilishda ham uning hissasi beqiyosdir. Zarifa Saidnosirova – faqat buyuk yozuvchining rafiqasi emas, balki ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan, O'zbekiston madaniy hayotida alohida o'rin tutgan ayollardan biri edi. Zarifa Saidnosirova ilm-ma'rifatli oilada tug'ilib, yoshligidanoq bilimga chanqoq bo'lgan. U oliy ta'limni tamomlab, o'z hayotini ilm-fanga, ayniqsa, o'zbek adabiyotini tadqiq etishga bag'ishladi. Uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi katta bo'lib, ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar yaratgan. Zarifa Saidnosirova Oybek bilan turmush qurganidan keyin ham ilmiy faoliyatini davom ettirdi. U nafaqat yaxshi rafiq, balki Oybekning ijodiy hamkori ham edi.

Zarifa Saidnosirova kimyo fanlari nomzodi 1945, 1986-yil 16 avgust Toshkent kimyogar olimi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi 1968, 1970 professor unvonlariga ega bo'gan. Birinchi o'zbek ayol rassomi. Taniqli ma'rifatparvar Saidnosir Mirjalilovning qizi, Oybekning rafiqasi.

Qishloq xo'jalik institutida o'qituvchi, dotsent va kafedra mudiri 1930—1986, Toshkent tibbiyot institutida o'qituvchi 1932—1937, O'quv pedagogika nashriyotida muharrir 1934—1935 bo'lib ishlagan. O'rta maktablar va texnikumlar uchun „Kimyo“ darsligi 1933 muallifi. Zarifa Saidnosirova pedagogik faoliyatidan tashqari, volfram kompleks birikmalari va kimyo terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati ustida ilmiy ish olib borgan. U yozuvchining asarlarini chuqur o'rganib, ularning adabiy jihatdan tahlil qilinishida muhim rol o'ynadi. Oybekning murakkab hayot yo'lida, ayniqsa, unga bosimlar kuchaygan davrda Zarifa xonim uning eng yaqin hamrohi bo'ldi. Bu ayol pedagog sifatida ham katta iz qoldirgan. U yosh avlodga adabiyot va til sohasida chuqur bilim berishga harakat qilgan. Uning asarlari va tadqiqotlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Zarifa Saidnosirova Oybek adabiy merosini saqlash, tartibga solish va nashr etish ishiga katta hissa qo'shgan. U adibning o'zbek tilidagi 2 jildlik 1975—1985 yil „Mukammal asarlar to'plami“ ni, rus tilidagi 5 jildlik 1985—1987 „Asarlar“ ni nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan. Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati 1985. Tasviriy san'atga oid ishlari Oybek uy-muzeyida saqlanadi.

Zarifa Saidnosirova „Oybegim mening“ asari nafaqat biografik asar, balki tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan, jonli va yorqin tasvirlarga ega chiroyli muhabbat qissasidir. Kitobda Oybekdan tashqari yana bir asosiy qahramon bor. Bu butun hayotini Oybekka bag'ishlagan, uning mashaqqatli qismatini yengillashtirishga intilgan, unga munosib yor bo'lgan Zarifa opaning o'zidir. Oybekning shaxsiy hayotinigina emas, balki bir-biriga munosib ikki ulug' siymoning sevgi va vafo dostoni „Oybegim mening“ asarini o'qir ekansiz, ular boshidan o'tkazgan qiyinchiliklar, ularga qilingan tuhmatlardan lol qolasiz, kitob sizni shunchalik qiziqtirib qo'yadiki, go'yo bu voqealar o'zingiz bilan yuz berayotganday tuyiladi. Zarifa Saidnosirova umrining oxirigacha hayotini Oybekka bag'ishlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>

Date: 5th April-2025

2. Navoiy [Matn] : Roman / Izohlar bilan nashrga tayyorlovchilar: Sh. Eshonxo‘jayev, S. Irisxojiyeva; Mas’ul muharrirlar: H. Yoqubov, Z.Saidnosirova. – 1976. – 724 b.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

